



SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Iqtisodiyot 4 -bosqich talabasi .

Mahamatjonov Temur-Malik Avazbek o'g'li. And.M.I

A. Kamilova katta o'qituvchi And.M.I

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizmlari

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida inqiroz jarayonlari chuqurlashib, dunyo miqyosida xarid talabi pasayib bormoqda va shunga muvofiq tarzda xomashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo'yicha raqobat yildan-yilga kuchayib bormoqda. Ko'plab rivojlangan va yetakchi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiyalash va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish talab etilmoqda.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, sanoat ishlab chiqarish korxonalarini, raqobatbardoshlik indeksi ko'rsatkichlari, tadbirkorlik qobiliyati, korxonalar personalini, kommunikatsiya samaradorligini.

Asosiy qism: Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ham iqtisodiy rivojlanishning usutuvor yo'nalishlarini aniqlab olish kabi muhim masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-sonli Farmonida belgilab berildi. Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatda O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'linmasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar keltirib o'tildi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Dastlabki yo'nalish



O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlardir.

Qayd etish kerakki, mazkur me‘yoriy-huquqiy hujjatda O‘zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo‘nalishlari bilan bir qatorda “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” bo‘linmasida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar keltirib o‘tildi.

Bundan tashqari, mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Dastlabki yo‘nalish O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlardir. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, yangi industrial tarmoqlarni shakllantirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularni qayta jihozlash, mahsulotlar eksportini oshirish bilan bog‘liq ishlar bevosita investitsion jarayon bilan bog‘liq. Shunday ekan, sanoat ishlab chiqarishini taraqqiy ettirishga doir qabul qilingan me‘yoriy aktlar bevosita investitsiya faoliyatini yuritishga oid tashkiliy-huquqiy hujjatlar bilan uzviy bog‘liq ravishda ishlab chiqilishi va bir-birini to‘ldirishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasida ham investitsiya faoliyatiga oid ko‘plab me‘yoriy – huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning eng asosiysi bu “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi

Mamlakatimiz sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishda korxonaning strategik rivojlanish maqsadlarida innovatsion faoliyatga oid rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirish, innovatsiyalarni amaliyotga tabiiq etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda innovatsion boshqaruv maqsadlari daraxtini shakllantirishda yuqorida taklif etilgan usuldan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish bilan bir qatorda, korxonaning innovatsion rivojlanishining barqarorligini ta‘minlash uchun zamin yaratadi

Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish, korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligi ko‘rsatkichlari ta‘sirida o‘zgarishi mumkin bo‘ladi. Ya‘ni sanoat korxonasida innovatsion boshqaruv to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari texnik va yexnologik jihatdan zamon talablariga qanchalik mos bo‘lgani sari ishlab chiqarish hajmi shunchalik yuqori sur‘atda ortadi.



Asosiy e'tiborni mamlakatimizda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi mexanizmini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishga qaratish maqsadga muvofiq. Bunda hududiy tamoyil asosida sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish zarur. Shuningdek, viloyatlar kesimida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, ularni global darajadagi raqobatbardoshlik indeksi ko'rsatkichlarini muntazam ravishda takomillashtirish imkoniyati vujudga keladi.

Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarini monitoring qilish hududiy innovatsion sanoat markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, sanoat korxonalarining uzoq muddatli davr uchun mo'ljallangan innovatsion rivojlanish dasturlari va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlari hududiy sanoat korxonalarini rivojlantirish markazlari tomonidan o'rganilib, ularni moliyalashtirish va tegishli imtiyozlardan foydalanish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatiladi.

Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ichki omillar qatoriga tadbirkorlik qobiliyati, korxonada personal, kommunikatsiya samaradorligi, korxonaning tashkiliy tuzilishi, innovatsion faoliyatning bozorga yo'naltirilganligi va innovatsiyalar uchun resurslarning yetarlilik darajasi kabi omillar kiradi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga esa mamlakatda maslahat va konsalting xizmatlari, moliyaviy yordam, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qonunchilik kabi omillar inobatga olinishi zarur.

Xulosa : Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi mexanizmlar va usullar amalga oshiriladi:

1. Avtomatlashtirish: Korxonalarda avtomatlashtirish texnologiyalari va robotlar foydalanish orqali ish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu, ishchi kuchini oshiradi va xato riskini kamaytiradi. Avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshiriladi.

2. Texnologiyalarni yangilash: Korxonalar yangi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini yengillashadi. Yangi texnologiyalar yordamida ish jarayonlari tezlik va samaradorlikni oshirish mumkin.

3. Kvalifikatsiyani oshirish: Ishchi kadrlarining kvalifikatsiyasini oshirish, texnikani rivojlantirish va yangi bilimlarni o'rganish samaradorlikni oshiradi.



Kvalifikatsiyani oshirish kurslari, treninglar va seminarlar orqali ishchi kadrlarni rivojlantirish muhimdir.

4. Tadbirkorlikni rivojlantirish: Korxonalar tadbirkorlik rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion loyihalar va startaplarga investitsiyalar kiritishi mumkin. Yangi biznes modellari va strategiyalar yordamida korxonalar samaradorligini oshirish mumkin.

5. Ta'sirlashuvchi ish rejalarini yaratish: Korxonalarda ish rejalarini ta'sirlashuvchi qilish, ishchi motivatsiyasini oshiradi va faoliyatni samarador qiladi. Bunday ish rejalarini yaratish orqali ishchi kuchini oshirish va korxonalar samaradorligini oshirish mumkin.

Bu mexanizmlar va usullar sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkin. Bu jarayonlar korxonalar uchun samarali va rivojlanayotgan bir yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi "2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ– 3012-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida" gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-aprelda "Ilm-fansohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5047-son Qarori / lex.uz.
4. Sarimsakov D.X. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>.